

TARIXIY-BADIIY MATNLARDA ANTROMORF METAFORALARNING IFODA XUSUSIYATI

Qodirjonova Zohida Akromjon qizi

Andijon davlat universiteti

O‘zbek tili ixtisosligi 3-kurs doktoranti

Tel: +998887239997

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21616945>

Annotatsiya: Tarixiy-badiiy matnlar tarkibida antromorf metaforalar har qanday davr o‘quvchisi uchun birdek tushunarli va ta’sirli matn yaratish uchun muhim vosita sanaladi. Muallif barcha uchun birdek tushunarli bo‘la oluvchi bunday metafora turidan foydalanish orqali bir millat madaniyati, til boyligi va dunyoqarashini ifodalaydi.

Kalit so‘zlar: tarixiy-badiiy matn tahlili, lingvomadaniy tahlil, antromorf metaforalar, bazaviy metaforalar, “Ulug’ saltanat” asari

Abstract: In the structure of historical and artistic texts, anthropomorphic metaphors are considered an important tool for creating a text that is equally comprehensive and effective for the reader of any era. By using this type of metaphor, which is equally understandable for everyone, the author expresses the culture, linguistic richness and worldview of a nation.

Keywords: historical and artistic text analysis, linguistic and cultural analysis, anthropomorphic metaphors, basic metaphors, the work "The Great Empire"

Аннотация: В структуре исторических и художественных текстов антропоморфные метафоры рассматриваются как важный инструмент создания текста, одинаково понятного и эффективного для читателя любой эпохи. Используя этот тип метафоры, одинаково доступный каждому, автор выражает культуру, языковое богатство и мировоззрение нации.

Ключевые слова: анализ исторических и художественных текстов, лингвистический и культурный анализ, антропоморфные метафоры, основные метафоры, произведение «Великая империя»

Matn turlari qatorida alohida ajralib turuvchi badiiy matn san'at va estetikaga asoslangan matn turidir. Bu turdagi matnlar insonlarning ruhiy, hissiy holatlarini, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarini tasvirlashga harakat qiladi. Badiiy matnlar asosan adabiyotning proza, poeziya va drama kabi janrlariga bo'linadi:

- Proza: Roman, hikoya, esse va boshqalar.
- Poeziya: She'rlar, lirika, epik poeziya, dastan va boshqalar.
- Drama: Tragediya, komediya, melodrama va boshqalar.[4:73]

Ushbu bo'linish matnning shakl va mazmun jihatdan guruhlariga ajratilishi hisoblansa. Zamon ya'ni vaqt nuqtayi nazaridan badiiy matnlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Tarixiy-badiiy matnlar
- Zamonaviy badiiy matnlar.

Tarixiy-badiiy matnlar o'tmishdagi real voqealarni yoritish uchun xizmat qiladi. Albatta, badiiyliknita'minlash uchun to'qima voqealar va qahramonlar kiritilishi mumkin, lekin ularning asosida tarixiy haqiqat yotadi.

"Ulug' saltanat" ham mana shunday asarlar qatoriga kiradi. Ushbu asar nafaqat tarixiy voqealarni badiiy ifodasi bilan, voqealarni yoritishda boy til hodisalaridan foydalanishi bilan ham ajralib turadi. Jumladan, asar matni metaforalar juda keng qo'llanilgan. Bu holat asarni lingvomadaniy tahlil uchun boy manba bo'la olishini isbotlaydi.

Metaforalarning badiiy yoki lingvistik o'rganilishi Arastu davriga borib taqaladi. Faylasuf o'zining "Poetika" asarida metaforani borliqdagi atalmishlarning o'xshashligi asosida ifodalovchi ma'nosining qayta tushunilishi sifatida talqin qiladi. Bu atamani birinchi bo'lib Izokratning "Evagorus" deb nomlangan asarida qo'llangani haqida ma'lumotlar bor[1:110-115] Shuningdek, metaforaning

germenevtik tadqiqi masalasi milliy va diniy qadriyatlar tarixi bilan bog'lanib ketadi. Bu masala bilan metaforologiyaning lingvoaksiologik yo'nalishi mashg'ul bo'ladi. Bu borada Dj.Lakoff, M.Djonson, L.Laudov, L.B.Alberti, M.Veber, A.N.Baranov, V.I.Karasik, G.N.Sklyarevskaya, I.I.Dubrovina, Praxonskiy, Filyushin, N.A.Lukyanova kabilarning olib borgan tadqiqotlari e'tiborga molikdir.[3]

Metaforalarning katta qismi bazaviy metaforalar tarkibiga birlashadi. Bazaviy metaforalar Sh.Maxmaraimovaning ta'rifiga ko'ra, "...mifopoetik dunyoqarash asosida shakllangan, mazmun- mohiyati, ahamiyati vaqt o'tishi bilan ham susaymaydigan, aksincha, ma'nosi barcha madaniyatlar vakillariga birday tushunarli bo'lgan metaforalar" bazaviy metaforalar hisoblanadi. Sh.Maxmaraimova "Hozirgi o'zbek tili. Leksikologiya" nomli o'quv qo'llanmasi (Toshkent, 2021) da bazaviy metaforalarning quyidagi turlarini qayd etadi: antropomorf, teomorf, biomorf, zoomorf, fitomorf, ornitomorf, naturamorf, texnomorf, reimorf metaforalar. [5:15]Inson omili bilan birlashuvchi metaforalarning barchasini antroposentrik metaforalar deb ham nomlanadi. Antropotsentrik metaforalar Markazida inson turuvchi, uning ichki va tashqi sifatlari bilan bog'liq bo'lgan metaforalar. Ayrim tilshunoslarning fikriga ko'ra, inson bilan bog'liq **bo'lgan antropomorf, zoomorf, biomorf metaforalar antropotsentrik** metaforalarning turlari hisoblanadi. Bularning ichida antropomorf metaforalar keng tarqalganligi va tarixiy-badiiy matnda keng ko'lamda qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Antropomorf metaforalar Insondan boshqa mavjudotlarga, narsa va predmetlarga insonga xos belgi, harakat-holatning ko'chirilishi asosida yuzaga kelgan metaforalar hisoblanadi [5:12]

"Ulug' saltanat" asarida antropomorf metaforalar quyidagi vaziyatlarni ifodalash uchun qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin:

1. Insonning ruhiy holatini: *Kuy-qo'shiqlar, so'lim navolar dillarni*

allalaydi ...[2:189] Ushbu jumlada o'zbek madaniyatida "alla" shunchaki qo'shiq emas, u ona mehri, xotirjamlik, poklik va himoya ramzidir. Musiqaning qalbga beradigan taskini eng muqaddas tushuncha — onalik hamda beshik madaniyati bilan bog'lanib, asardagi osoyishtalik muhitini lingvistik jihatdan chuqurlashtirgan.

Amir Temurning kayfiyati chog' edi [2:190] O'zbek tilining lisoniy manzarasida kayfiyat tushunchasi ko'pincha jonlantiriladi. Uning *chog' bo'lishi*, ya'ni xursand, yayragan, xushchaqchaq holatga kirishi insonga xos kayfiyat dinamikasini moddiylashtirib, jonli tasvirlashga xizmat qilgan.

Xonzoda xonim ko'zlari quvonch yoshlari bilan siylanganiga... [2:190]

Siylash - izzat-ikrom ko'rsatish, sovg'a-salom ulashish faqat ongli insongagina xos bo'lgan ijtimoiy harakat. Bu yerda esa "*quvonch yoshlari*" Xonzoda xonimning ko'zlarini go'yo bir aziz mehmondek siylayotgan, unga ko'rk bag'ishlayotgan jonli vosita sifatida antropomorf metafora hosil qilgan.

2. Tabiatni tasvirlash uchun: *Oftobning halim nuri...[2:189]* O'zbek

xalqi sharqona donolik, andisha va andishali insonlarni *halim* - muloyim, yumshoq, bosiq deb ta'riflaydi. Quyoshning jazirama emas, balki mayin porlashini bu sifat orqali berilishi tabiatni qavm-qarindoshlik yoki yaqin insoniy munosabatlar kontekstida qabul qilish an'anasidan dalolat beradi.

3. Inson jismoniy harakati ifodasi uchun: *...nazarari tushgan*

Gavharshod begimning havasi keldi... ...[2:190] Inson qarashini, ya'ni *nazarni* mustaqil harakatlanuvchi, biror joyga *tushadigan*, borib yetadigan ob'ekt yoki jonli kuch sifatida tasvirlash o'zbek tili badiiy uslubiga xos jonlantirish elementlaridandir.

4. Madaniy qadryatlar ifodachisi sifatida berilishi: *avlodlarda jamol*

ko'rguzsun [2:190] *Jamol* so'zi arab tilidan olingan bo'lib, husn, go'zallik, yuzning nurli va chiroyli qiyofasi degan ma'nolarni anglatadi. *Ko'rgizmoq* (ko'rsatmoq) — odatda aniq moddiy narsani yoki inson o'z yuzini kimgadir

namoyish qilganda ishlatiladigan harakatdir. Bu yerda chaqaloq - Burqul Mirzo ulgʻayib, kelajakda oʻzidan qoladigan farzandlari va chevaralarida qaytadan aks etishi nazarda tutilmoqda. Yaʼni, insonning goʻzalligi, yaxshi feʼl-atvori va nuri oʻzi oʻtib ketganidan keyin ham "avlodlarining yuzida va siymosida qaytadan tirilib, odamlarga koʻrinib turishi" soʻzma-soʻz jonlantirilmoqda. Inson jamoli – goʻzalligi avlodlar zanjiri orqali vaqt boʻylab sayohat qiluvchi va oʻzini namoyish etuvchi mustaqil bir tirik kuch sifatida tasvirlangan. Oʻzbek xalqi mentalitetida insonning bu dunyodagi umri faqat oʻzi bilan tugamaydi. Yaxshi farzand va munosib avlod — otaning, boboning davomchisi hisoblanadi. Matnda bu tilak tilga olinganda, buyuk bobolarning ismi oʻchmasligi, ularning ulugʻvorligi kelajak avlodlar qiyofasida ham davom etishi soʻralmoqda. Bu — sharqona oqfotihalar, duolar va tilaklarning eng oliy darajasidir. Ushbu jumlada *"Yaxshi noming, go'zal iymoning va nurlu chehrang farzandlaring siymosida doimo yashasin, ularning yuzidan sening jamoling ufurib tursin"* degan chuqur falsafiy ma'no yotadi. Muxtasar aytganda, bu shunchaki oddiy gap emas, balki inson hayoti va go'zalligining avlodlar qiyofasida abadiy yashashini ko'rsatuvchi metaforik duo va milliy madaniy konseptdir.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy-badiiy matnlar tarkibida antromorf metaforalar, insondan tashqari barcha mavjudod va jismlarga insoniy jihatlarni koʻchirish orqali voqealarni emotsional taʼsirini oshirish va matnning lingvistik qiymatini madaniy jihatdan yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Античные теории языка и стиля. – М. – Л., 1936. – С. 217.
2. Muhammad Ali. Ulugʻ saltanat. 4-kitob. 2024, 189-190-b.
3. Ochildiyeva, H. (2023). NUtqni aloqa vositasi sifatida rivojlantirish. *Scientific Bulletin of NamSU-NamDU ilmiy axborotnomasi* 2023-yil 3-son.
4. Urazboyeva S. Artistic text and its types// Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. Special Issue – 5. 2024. 73-bet.



5. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 112 b.